

# FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

[www.academicsbook.com](http://www.academicsbook.com)

Vol: 2 Issue: 2 (2025)

## O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA JAMOATCHILIKNING NAZARIY ASOSLARI, USUL VA SHAKLLARI

**Normo'minova Shahnoza Bozor qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,  
Pedagogika yo'nalishi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Oilada doimo tinchlik bo'lishi, bo'sh vaqtini faol tashkil etish, madaniyat, san'at maskanlariga oilaviy sayohatlar uyshtirish - oila barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Oilada bolaning to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyada hamjihatlikdir. Ta'lim - tarbiya masalasi murakkab bo'lib, bunday ulkan mas'uliyatli, sharaflı ishni oila, mahalla, maktab va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rinnegallaydi.

**Kalit so'zlar:** oila, bola, mahalla, vatanparvarlik, maktab, hamkorlik, ota-onas, mardlik, mehr-muhabbat.

**Аннотация.** Постоянное наличие мира в семье, активная организация свободного времени, организация семейных походов по местам культуры и искусства - служит обеспечению семейной гармонии. Одним из главных условий правильного воспитания ребенка в семье является единство в воспитании. Вопрос воспитания сложный, и важно осуществлять такую чрезвычайно ответственную и почетную работу в сотрудничестве с семьей, двором, школой и широкой общественностью.

**Ключевые слова:** семья, ребенок, двор, патриотизм, школа, сотрудничество, родители, мужество, любовь.

**Annotation.** Always having peace in the family, actively organizing free time, organizing family trips to places of culture and art - serves to ensure family harmony. One of the main conditions for proper upbringing of a child in the family is unity in upbringing. The issue of education is complex, and it is important to carry out such a hugely responsible and honorable work in cooperation with the family, neighborhood, school and the general public.

**Key words:** family, child, neighborhood, patriotism, school, cooperation, parents, courage, love.

### KIRISH

Ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan "Vatanni sevmoq iymondandir", - degan hadis zamirida ham huddi shunday mazmun mujassam. Agar uzoq tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, vatanga e'tiqod tuyg'usi xalqimiz tomonidan qadimdan e'zozlanib kelinganining guvohi bo'lamiz. Ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan mashhur insonlarning xatti-harakatlari, vatan ravnaqi yo'lida chekkan zahmatlarini, bizgacha yetib kelgan asarlari va tarixiy ma'lumotlar orqali bilib olishimiz mumkin.

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlar ham bevosita ushbu sohani yanada taraqqiy toptirishga xizmat qiladi. O'zbekiston

# FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

[www.academicsbook.com](http://www.academicsbook.com)

Vol: 2 Issue: 2 (2025)

Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida “Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”<sup>1</sup> deb ta’kidlanganlari ham yoshlarimizni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda adabiyotga e’tibor qaratish muhim ijtimoiy masala ekanligidan dalolat beradi.

Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi - jamiyatda yuqori ijtimoiy faollik, fuqarolik javobgarligi, ma’naviyatni rivojlantirish, davlatni mustahkamlash, uning manfaatlarini va rivojlanishini ta’minlash. Maqsadga erishishda quyidagilarning rivojlanishi orqali vazifalar amalga oshiriladi: Fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va jamoaviy hayot normalariga hurmat ruhida tarbiyalashdir. Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va uning burchlari amalga oshirilishini ta’minlash uchun sharoit yaratish ham shu jumladandir.

Millat taqdiri bilan yashash, vatanga e’tiqod,adolat, insoniylik tuyg‘usi yuksak darajada shakllangan, milliy g‘urur va iftixorimizga aylangan buyuk bobokalonlarimizning o‘gitlarida o‘z aksini topdi. Buni biz haqiqiy vatanga e’tiqodli yurtdoshlarimizdan biri Shayh Najmuddin Kubro faoliyatida ko‘rishimiz mumkin. Shayh Najmuddin Kubro yoshlarning vatanga muhabbatini oshirish bilan birgalikda, bir-birlariga mehr-oqibatli bo‘lishga undadi. O‘z vatani ozodligi yo‘lida qo‘liga qilich olib, dushmanga qaqshatqich zARBalar keltira olgan Xorazmning mard o‘g‘loni Jaloliddin Manguberdidir<sup>2</sup>.

Jaloliddin Manguberdining hayoti va vatanga e’tiqod yo‘lidagi faoliyatini chuqr tahlil asosida o‘rganish o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning vatanga e’tiqod, ona - Vatanga cheksiz muhabbat, g‘urur va iftixor, vatan va xalq tinchligi yo‘lida jon fido etish, insonparvarlik kabi qarashlarini tarkib toptirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada doimo tinchlik bo‘lishi, bo‘sh vaqtini faol tashkil etish, madaniyat, san’at maskanlariga oilaviy sayohatlar uyuştirish - oila barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladi. Oilada bolaning to‘g‘ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyada hamjihatlikdir. Ta’lim tarbiya masalasi murakkab bo‘lib, bunday ulkan mas’uliyatlari, sharaflı ishni oila, mahalla, məktəb və kəng jamoatchılık bilan hamkorlikda olib borish muhim o‘rin egallaydi.

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyyolilari vakillari bilan uchrashuvdaggi ma’ruzasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, 4 avgust, 153-soni.

<sup>2</sup> Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. - T.: O‘qituvchi, 2001. -428 b.

# FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

[www.academicsbook.com](http://www.academicsbook.com)

Vol: 2 Issue: 2 (2025)

Mahallaning ustunligi shundaki, bu yerda ko‘p yillar davomida birga yashagan, bir birini bilgan, sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladilar. Ular har bir oiladagi muhitni va har bir bola tarbiyasini, ota-onasini mahallada tutgan o‘rni, mavqeい hamda imkoniyatlarni yaxshi biladilar.

Oila, mahalla, maktab hamkorligi rejasini tuzish:

- tarbiyaviy ishlar o‘tkazish dasturi va shu dastur asosida mahallada yashovchi har bir bola bilan bu tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- mahallada bolalar dam olishlariga, qiziqarli ishlar bilan shug‘ullanishlariga imkoniyat yaratib berish;
- mahallada tarbiyaning ta’sirini oshirish.

Kabi ko‘plab ishlarni olib borish, o‘quvchilarni har tomonlama axloqli tarbiya topishlariga keng imkoniyatlarni yaratadi.

Ta’lim va tarbiya sohasiga e’tiborni kuchaytirish bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan va hujjatlarni, ma’muriy ko‘rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyatini o‘ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllariga ega bo‘lishilari zarur.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlarni qamrab olgan holda, ularning yoshlaridan, qiziqishlaridan kelib chiqib ularni foydali ishlarga yo‘naltiriladi.

Bola tarbiyasida maktab o‘rni ham juda beqiyosdir. Har bir bola maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, o‘zining kelajakdagi qiladigan ishlarni jajji ongida tasavvur qiladi. Maktabda olgan bilimlari, ta’lim-tarbiyasi, bu ishlarning amalga oshishida albatta o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga afnal qilinganida samaradorlik yanada yuqoriroq bo‘ladi:

- ta’lim tarbiya jarayonida hamkorlik harakatlarining ish birligi,
- tarbiyalanuvchiga xurmat va talabning uyg‘unligi,
- hamkorlik jarayoni sub’ektlarning teng huquqliligi va yuksak mas’uliyati,
- ota-ona farzandining maktabgacha bo‘lgan davrdagi jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash<sup>3</sup>.

Bularning barchasi bolaning yetuk inson bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyatlardan biri hisoblanadi.

Tarbiyaviy, tashkiliy, uslubiy ishlarni hayotga tatbiq etishda har bir fuqaro, oila, mahalla va mакtab o‘zining shart-sharoiti, atrof-muhitni taxlil qilib:

- o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona;
- mакtab, oila, mahalla, jamoatchilik;

<sup>3</sup> Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. - T.: O‘qituvchi, 2001. - 232 b.

# FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
www.academicsbook.com

Vol: 2 Issue: 2 (2025)

- oila, mahalla, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab;
- yo'nalishlariga amaliy tarbiya ishlarini hayotga tatbiq etib va shu kun talabi darajasida targ'ibot ishlarini olib borilsa, natijada tarbiya masalalari bo'yicha ijobiy yutuqlarga erishish mumkin.

## XULOSA

Xulosa o'rnidida shuni ma'lum qilamizki, yosh avlodni yaxshi xulqli, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, harakteriga ahamiyat berish lozim. Chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Mahalla, maktab, oila hamkorligining ijobiy tomonlari shundaki - bolaning dunyoviy bilimga ega bo'lish, fikrlarning keng bo'lishi, noto'g'ri ta'sirlarga berilmasligi, uyda, mакtabda bo'sh vaqtini unumli utkazishni taminlashga va xalqiga, jamiyatga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'ayishiga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 4 avgust, 153-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O'zbekiston, 2017. 242 b.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. - T.: O'qituvchi, 2001. -428 b.
4. Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. - T.: O'qituvchi, 2001. - 232 b.
5. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: ped.fan.nomz. dis-yasi. - T.: TDPU, 2001. -136 b.
6. Hasanboev J., Hasanboeva O., Turopova M. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. -112 b.
7. Begmatova, D. M. (2020). O 'zbek oilalarida yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvi. Monografiya. Samarqand: SamDChTI.
8. Mukhtarova, B. D. (2021). Professional socialization of youth as a pedagogical problem. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1207-1212.
9. Sh, I. (2023). Recent Trends and Issues in English Language Teaching. Экономика и социум, (4-2 (107)), 118-120.
10. Ibragimova G.X. Kasb ta'limi tizimida talaba-yoshlar ma'naviyatini milliyistiqlol g'oyasi asosida shakllantirish. - T.: Fan, 2005. -159 b.